

2019-YILDA MADANIYAT MUASSASALARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


Madaniyat - inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya kabi faoliyatlarda namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadigan ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Namangan viloyatida muzeylar

Viloyatimizda 2019- yilda jami muzeylar soni 2 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 1 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 198,3 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 82,2 % ni tashkil etgan.

2019- Eksponatlar turi bo'yicha muzeylar fondi



Bugungi kunda viloyatimizda muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo‘lib, 2019- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 97285 tani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining 448 tasi rassomlik, 8 tasi grafika, 38 tasi haykaltaroshlik, 1069 tasi amaliy san’at, 8583 tasi numizmatika, 8354 tasi arxeologiya buyumlari hamda 25344 tasi suratlar, 40841 tasi hujjatlar va 8700 tasi boshqa eksponatlardan iborat.


Teatrlar faoliyati

2019- yilda respublikamizdagi jami teatrlar soni 1 tani tashkil etadi. Unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa, 257 tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 82,3 ming nafarni tashkil etgan.

Teatr faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

	Spektakllar (tomoshalar) soni	O‘z joyida namoyish qilingan spektakllar	Ko‘chma spektakllar	Qishloq aholisi uchun spektakllar	Bepul spektakllar soni	Ulardan qishloq joylarda
Jami teatrlar soni, birlikda	257	139	118	103	32	32
Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, ming kishi	82,3	48,3	34,0	23,0	10,8	10,8

2016-2019- yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan teatrlar soni, birlikda



■ 2016 yil ■ 2017 yil ■ 2018 yil ■ 2019 yil

Viloyatimizda 1 ta drama teatri mavjud. 2019- yilda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni

257 tani tashkil etib, qishloq aholisi uchun taqdim etilgan spektakllar soni 103 taga (40,0 %) teng. 2019- yilda bepul namoyish etilgan spektakllar soni 32 tadan iborat.

2019- yilda jami teatr xodimlari soni 42 nafarga teng bo‘lib, shundan ayollar ulushi 28,5 % (12 kishi) ni tashkil etgan.

Konsert tashkilotlari faoliyati

Mamlakatimizda 2019- yilda jami faoliyat ko‘rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 2 ta bo‘lib. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 153,0 ta. Shuningdek, tinglovchilar soni jami 268,5 ming nafar bo‘lgan.

2017-2019- yillarda konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Konsert tashkilotlari soni, <i>birlikda</i>	2	2	2	2
Xizmat ko‘rsatilgan tinglovchilar, <i>ming kishi</i>	28,3	24,6	23,5	268,5
Konsertlar soni, <i>birlikda</i>	143	132	158	153

2019- yilda konsert tashkilotlarining umumiyligi shtatdagi artist xodimlari soni 33 kishidan iborat bo‘lib. Shundan, ayollar ulushi (10 nafar) jamiga nisbatan 30,3 % ni tashkil etgan.

Madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati

2019- yilda viloyatimizda jami 11 ta madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud. Ular jami 85,4 hektar maydonni egallaydi. 2019-yilda jami qatnovlar soni 1 903,7 kishini tashkil etib, ulardan 1 070,4 kishini bolalar tashkil etadi.

2019- yilda madaniyat va istirohat bog‘laridagi umumiy ishchi xodimlar soni 63 kishini tashkil etgan, ulardan 14 tasi yoki 22,2 % i ayollardan iborat.

2019- yilda istirohat bog‘laridagi jami attraksionlar soni 124 tani tashkil etgan.

	Madaniyat va istirohat bog‘lari soni	Madaniyat va istirohat bog‘lari umumiy maydoni, hektar	Damolish ob’ektlari soni	Attraksionlar soni	Jami qatnovlar, ming kishi	<i>shujumladan bolalar tomonidan</i>
Jami:	11	85,4	59	124	1903,7	1070,4
Namangan sh	4	49,7	32	56	1581,1	834,4
Mingbuloq	-	-	-	-	-	-
Kosonsoy	1	10,5	-	21	43,5	36,9
Namangan	1	4,8	-	-	-	-
Norin	1	4,6	-	-	-	-
Pop	-	-	-	-	-	-
To’raqo’rg’on	1	-	-	-	-	-
Uychi	-	-	-	-	-	-
Uchqo’rg’on	1	2,5	1	-	-	-
Chortoq	1	7,2	2	10	-	-
Chust	1	6,1	24	37	279,0	199,1
Yangiqo’rg’on	-	-	-	-	-	-

**Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining asosiy
ko'rsatkichlari**

	Muassasalar soni, birlikda	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlikda	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar, ming kishi
Namangan viloyati	80	4616	1356,3
Namangan sh	7	394	203,1
Mingbuloq	7	314	46,7
Kosonsoy	5	302	190,2
Namangan	7	223	55,9
Norin	6	350	75,3
Pop	8	419	62,0
To'raqo'rg'on	5	446	77,8
Uychi	6	552	181,1
Uchqo'rg'on	6	471	173,4
Chortoq	7	315	47,5
Chust	8	219	64,3
Yangiqo'rg'on	8	611	179,0

Madaniyat markazlarida jami 80 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 36,4 % (1682 ta)ni ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 29,6 % i (1370 ta) mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 10,5 % i (486 ta) teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 23,3 % i (1078 ta) konsertlar ulushiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 1356,3 ming kishini tashkil etgan.

Viloyatda kutubxona faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish tog'risida"gi PQ 4354-sonli qarorining 4-bandiga asosan:

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan Axborot Resurs Markazlari tugatilib, Axborot Kutubxona Markazlariga o'zgartirildi. Tugatilayotgan ARM larning kitob fondlari va shtat birliklarini yangidan tashkil etilayotgan tuman (shahar) axborot kutubxona markazlariga topshirildi.

Maktablardagi axborot resurs markazlarining kitob fondlari Viloyat xalq ta'limiga qarashli AKM ga o'tkazildi.

2020 yil 1 yanvar holatiga Axborot resurs va axborot kutubxona markazlari soni 18 tani tashkil etadi. Ulardan, axborot-kutubxona markazlari 12 ta, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari 1 ta, ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar 1 ta, boshqa kutubxonalar 1 ta, boshqa tashkilotlar va muassasalar kutubxonasi 3 ta. Kutubxonalardagi fond 2405,9 ming nusxani, kutubxona foydalanuvchilari soni 108,3 ming nafarni tashkil etdi.



	Kutubxona muassasalari soni (birlik)	Kitob va jurnallar soni (ming nusxa)	Foydalanuvchila r soni (ming kishi)
Viloyat bo'yicha	18	2405,9	108,3
Namangan shahar	7	1290,6	76,8
Mingbuloq tumani	1	23,9	0,6
Kosonsoy tumani	1	130,9	2,8
Namangan tumani	1	120,1	3,8
Norin tumani	1	79,5	3,5
Pop tumani	1	100,7	4,1
To'raqo'rg'on tumani	1	131,6	4,0
Uychi tumani	1	77,4	2,2
Uchqo'rg'on tumani	1	76,5	1,1
Chortoq tumani	1	174,1	1,2
Chust tumani	1	94,7	4,8
Yangiqo'rg'on tumani	1	105,8	3,4

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: 69-227-84-94